

## O'QIB TUSHUNISHDA INFOGRAFIKA VA DIAGRAMMALARDAN FOYDALANISH

*Ulmasova Zilola Fazliddin qizi*

*ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*[Olmasovzilola@gmail.com](mailto:Olmasovzilola@gmail.com) +99897 751 24 41*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda infografika va diagrammalardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Hozirgi zamonaviy ona tili darsliklaridagi infografika va diagrammalar tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish, diagramma, infografika, matn.

Bugungi kun ona tili darsliklarimiz o'ziga yarasha zamonaviy, kreativ, o'quvchining to'rt nutqiy ko'nikmasini shakillantirishga xizmat qiladi. To'rt nutqiy ko'nikmalardan biri bu o'qib tushunish ko'nikmasidir. O'qib tushunish - bu matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalari bilan bog'lab anglay olish qobiliyatidir. Bu ko'nikmani rivojlantirish uchun darsliklarda turli matn va u bilan bog'liq topshiriqlar (test, lug'atlar bilan ishlash, to'g'ri-noto'g'ri shaklidagi topshiriqlar) berilgan. O'quvchi bularni bajarish orqali matnni qay darajada tushunganini tekshirishimiz mumkin. Bundan tashqari ayrim sinf darsliklarida o'qib tushunish ko'nikmasini shakillantirish uchun turli infografika va diagrammalardan ham foydalanilgan. Avval infografika va diagramma nima ekanligiga izoh beramiz.

<sup>1</sup>Infografika axborot, ma'lumot yoki bilimlarni tez va oson olish mumkin bo'lgan tarzda namoyish etish. Unda ma'lumot almashishni qiziqarli va sodda qilish uchun rasmlar, diagrammalar va bir oz matndan foydalaniladi. Infografika kata hajmdagi ma'lumotlarni minimallashtirish va uni o'quvchi uchun yanada qiziqarli va ixcham shaklda taqdim etishni o'z ichiga oladi.


---

<sup>1</sup> <https://www.mindonmap.com/uz/blog/how-to-make-infographic/>  
<https://scientific-jl.com/>

<sup>2</sup>Diagramma (yun. diagramma – chizma, rasm, shakl) – muayyan miqdorlar (temperatura, bosim va boshqa) o'rtasidagi bog'lanishni grafik tarzda ifodalash (yaqqol ko'rsatish) usullaridan biri.

Infografika va diagrammalar o'z navbatida visual savodxonlik elementlari bo'lib unga <sup>3</sup>Uileman (1993) “Vizual savodxonlik-bu barcha turdag'i ma'lumotlarni ma'lumot bilan aloqa qilishga yordam beradigan rasmlar, grafikalar yoki shakllarga aylantirish qobiliyati”, - deb ta'rif beradi. Demak o'quvchi berilgan matnni va unda aks etgan ma'lumotlarni grafik tasvirlar orqali ifodalishi mumkin.


Zamonaviy darsliklarimizdagi infografika va diagrammalarga misollar: 6-sinf darsligida “Shifoxona” mavzusi “Hududlar bo'yicha kasalliklar statistikasi” nomli diagramma, “Dehqon yurtni boqadi” mavzusida O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (2021-yilning yanvar – sentyabr oylari bo'yicha) bo'yicha infografika, 7-sinf darsligida O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining yangiliklarga qiziqish ko'rsatkichlari bilan bog'liq diagramma, “C vitaminini” mavzusida 1ta infografika, 10-sinf darsligida esa faqat mustahkamlash darslarida diagrammalardan foydalanilgan.



7-sinf C vitamin mavzusidan

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diagramma>

<sup>3</sup> <https://www.redalyc.org/journal/3057/305764540006/html/#B25>



10-sinf Nutq savodxonligi  
61-darsidan

Biz darsliklarda berilgan bu topshiriqlarni asosan o'qib tushunish va

og'zaki nutqni rivojlantirish uchun foydalanamiz. Lekin ularda berilgan ma'lumotlardan foydalanib bergen savollarimiz asosida ularda tanqidiy, tahliliy va qiyosiy fikrlash qobiliyatini ham shakillantirish mumkin. Masalan: yuqorida berilgan 10-sinf darsligidan olingan diagrammada kutubxonaga tashrif buyuruvchilar sonini qiylab qaysi oyda eng ko'p va eng kam ekanligini aniqlashi mumkin.

Ona tili ta'limida infografikadan foydalanish orqali biz o'quvchida o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutqni shakillantirishimiz shuningdek lingivistik bilimlarni berishimiz mumkin. Masalan, o'qib tushunish ko'nikmasini shakillantirish uchun tayyor infografika yoki matn berib u asosida infografika yaratishni so'rasak, o'quvchi infografikani qay darajada tushunganini og'zaki nutqi yoki yozma topshiriq orqali, matnni esa o'zi yaratgan infografikani sharhlash orqali aniqlashimiz mumkin.

Endi o'quvchi tayyor infografikani qay darajada tushunganini aniqlash uchun o'qituvchi o'sha vaqtning o'zida turli og'zaki savollar berishi yoki gapirtirishi mumkin. Infografika asosidagi yozma topshiriq esa biroz boshqacha bo'lib unda o'quvchi ma'lumotlarni qay darajada tahlil qila olganligi ham aniqlanadi. Endi unga na'muna keltiramiz. Masalan pastda keltirilgan rasm asosida quyidagicha topshiriq tuzsa bo'ladi.



*Infografikadan olingan ma'lumotlardan foydalanib matnni to'ldiring.*

Kepios raqamli konsalting firmasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, qariyb **1.** odam yoki **2.** sal ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchi hisoblanadi.

Unda qayd etilishicha, 2022-yildan buyon ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni **3,7** foizga oshgan. Odamlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan vaqt ham oshib, kuniga o'rtacha **3.** tashkil qildi.

O'rtacha ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi **4.** platformaga ulangan, ulardan eng ommaboplari **5.**, **6.** va **7.**.

*Javoblar:* **1. Besh milliard, 2. Dunyo aholisining 60 foizdan , 3. Ikki yarim soatni, 4. Beshta, 5. Istagram, 6. YouTube, 7. Facebook.**

Matn o'qib tekshirilgandan so'ng uni quyidagi savollar asosida muhokama qilish ham mumkin. Bu savollar orqali o'quvchida muloqot ko'nikmasi shakillanadi. Masalan:

1. Kepios raqamli konsalting firmasi haqida eshitganmisiz?
2. Siz uchu qaysi ma'lumot kutilmagan yoki qiziqarli bo'ldi?
3. Siz qaysi ijtimoiy tarmoqdan va nima maqsadda foydalanasiz?

Infografika orqali qiziqarli dars o'tish bilan birga lingivistik bilimlarni berishda ham foydalanish mumkin. Masalan, yuqoridagi infografika orqali son mavzusini o'tishda darsning avvalida foydalanish mumkin. Bundan tashqari paronim, omonim so'zlar, iboralar va lug'atlar bilan ishlashda foydalanish mumkun.

Masalan 8-sinf ona tili darsligida berilgan quyidagi lug‘atni yangicha ko‘rinishda berish mumkin.

1. **Jelatin** (fr. *gelatine* – dirildoq, yelimshak; lot. *gelatus* – muzlagan) Yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda.
2. **Jungli** (ing. *jungle*; f.-hind – changalzor, o‘rmon) Chakalak, qalin o‘rmonzor.
3. **Jyuri** (fr. *jury* – hakamlar guruhi; lot. *juro* – qasam, ont ichaman; qasamyod qilaman) Musobaqa, tanlov va shu kabilarda g‘oliblikni va mukofot berishni belgilovchi mutaxassislar, hakamlar guruhi.



Infografika nafaqat nutqiy ko‘nikmalarini shakillantiradi balki o‘quvchini tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini, agar kompyuter orqali yaratса mediasavodxonligini ham oshiradi. Quyida Abduvohit Hayitning “Boburda so‘z nisbati” nomli maqolasiga 6-sinf o‘quvchilarining chizgan rasmlari taqdim etiladi.



6-sinf maktab

o'quvchilarining infografika haqidagi tasavvurlari aks etgan va

ular matnni to'liq emas ayrim qismlarini alohida bo'lib - bo'lib tasvirlashgan. Biz infografikalardan faqat sinfda emas uyga vazifa sifatida ham berishimiz mumkin.

Masalan:

1. Infografika ma'lumotlaridan foydalanib yozma matn tuzish (bunda o'quvchining yozma nutqi , fikrlashi rivojlanadi)
2. Loyiha ishi sifatida guruh a'zolariga infografika tayyorlash topshirig;ini berish. (o'quvchilarda hamkorlikda ishlash va shaxslararo kommunikativlik rivojlanadi)

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. 8-sinf Ona tili darsligi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2019. 104- bet.

2. Jadid gazetasi 2024-yil 8-soni.
3. <https://www.mindonmap.com/uz/blog/how-to-make-infographic/>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diagramma>
5. <https://www.redalyc.org/journal/3057/305764540006/html/#B25>